

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI «SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI» DUK SURXONDARYO VILOYATI FILIALI

«TASDIQLAYMAN»

«Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi» DUK  
Surxondaryo viloyati filiali

 direktori. A.A.Doniyorov

Termiz shahar  
31 08 2021yil.

**YIGMA EKSPERT XULOSA №802-2021/853**  
«Surxondaryo viloyati Termiz erkin iqtisodiy zonasasi va Termiz shahri axoli xonadonlarini gazlashtirish uchun qurilishi rejalashtirilayotgan kesimi D-219mm bo'lgan yuqori bosimli gaz quvurlari» ish loyixasining smeta bo'limi bo'yicha

(13.11.2020 yildagi №466-2020/484-sonli yig'ma eksper xulosa o'rniغا beriladi)

Buyurtmachi	-	“Xududgaz Surxondaryo” gaz ta'minoti filiali
Molyalashtirish manbai	-	Budget mablag'lari
Bosh loyixachi	-	“Xududgaz Surxondaryo” gaz ta'minoti filiali loyixa bo'limi
Litsenziya		-№AL-000588 raqamli 2020 yil 24 fevralda O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi tomonidan berilgan
Bosh pudratchi	-	Belgilangan tartib bo'yicha aniqlanadi
Qurilish turi	-	Yangi qurilish

## 1. Loyixalash uchun asoslar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30-apreldagi “Maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari muxandislik-kommunikatsiya va infratuzilmasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi №PQ-5101-qarori.

1.2. Buyurtmachining smeta xujjalalarini ekspertizadan o'tgazish uchun 24.08.2021 yildagi 37-01-24-07/2702-sonli xati.

1.3. Buyurtmachi tomonidan 2021 yilda tasdiqlangan loyixalash topshiriqnomasi.

1.4. 2021 yil 20-avgustda Surxondaryo viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati”IK tomonidan tasdiqlangan 13 sonli narxlar muvofiqlashtirish bayonnomasi va MChJ “Toshkent quvurlar ishlab chiqarish korxonasi” ning 15-iyul 2021 yildagi prays listi.

## 2. Eksperizaga taqdim etilgan materiallar

Smetsa hujjatlari ShNK 1.03.01.-16, ShNK 4.01.16-09 talablariga muvofiq tuzilgan.

## 3. Loyixaviy yechimlarning qisqacha mazmuni

Ushbu ob'ektning qurish narxini aniqlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi qurilish vazirligi “Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi” davlat unitar korxonasi Surxondaryo viloyat filiali, buyurtmachining 2021-yil 24-avgustdagi 37-01-24-07/2702 sonli xati va 2021 yil 20-avgustda Surxondaryo viloyati hokimligi “Yagona buyurtmachi xizmati”IK tomonidan tasdiqlangan 13 sonli narxlar muvofiqlashtirish bayonnomasi va MChJ “Toshkent quvurlar ishlab chiqarish korxonasi” ning 15-iyul 2021 yildagi prays listi asosida loyixaning smetasidagi lokal resurs-smetsa me'yorlarini va resurslarning qiymatini ko'rib chiqadi.

## 4. Qurilish ishlarning davomiylik muddati

Qurilish davomiylik muddati 12 oyni tashkil qiladi.

## **5. Ekspertiza ko‘rígí natijalari**

5.1., Ekspertiza jarayonida (lokal) ekspert xulosaning izohlariga muvofiq ishchi loyixaning smeta bo‘limiga quyidagi asosiy tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritildi:

- lokal resurs me‘yorlarining elementlari aniqlashtirilib, tuzatishlar kiritildi.
- resurs ko‘rsatkichlarining narxi (mashinalar va mexanizmlarning ishlashi transprot harajatlari, materiallar) buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan narx kelishuvi bayonnomasi mavofiq to‘g‘irlandi

### **5.2.Qurilish narxi sarxisobi.**

Taqdim etilgan loyixani qurilish ishlari qiymati QQS (qo‘shimcha qiymat solig‘i) bilan 32 774 320,330 so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, ekspertiza natijasiga ko‘ra, taqdim etilgan qiymati 466809,448 ming so‘m miqdorida kamaytirilib-32 307 510,882 ming so‘mga tasdiqlash uchun tavsiya etildi, shu jmladan:

- QMI.....-27851302,485 ming.so‘m,
- QQS.....-4177695,373 ming.so‘m,
- buyurtmachining boshqa xarajatlari.....-278513,025 ming.so‘m.

Kamayishga ayrim lokal resurs ko‘rsatkichlarini va qurilish materiallari narxlariaga aniqlik kiritilishi natijasida erishildi.

Ko‘rib chiqilgan smeta xujjalariaga kiritilgan ishlarning tarkibi va xajmining ishonchliligi uchun ekspertiza javobgar emas.

5.3.Buyurtmachi va bosh loyixachi tanlov boshlanishidan oldin belgilangan tartibda ishchi chizmalarni ishlab chiqishi va ekspertizadan o‘tkazishi shart.

5.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15 sonli qarorining II bobi 8 bandiga ko‘ra, «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning va birlamchi hujjatlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (bosh loyixachiga-qabul qilingan loyixaviy yechimlar bo‘yicha) yuklatilgan».

## **= 6. Xulosa. =**

6.1. Ekspertiza natijalarini xisobga olgan xolda «Surxondaryo viloyati Termiz erkin iqtisodiy zonasasi va Termiz shahri axoli xonadonlarini gazlashtirish uchun qurilishi rejalashtirilayotgan kesimi D-219mm bo‘lgan yuqori bosimli gaz quvurlari» ish loyixasining smeta bo‘limi bo‘yicha kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 6 martdagi 261 sonli qaroriga va 04.01.06-09 sonli ShNK ko‘ra, qurilishning tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo‘la olmaydi va yakuniy aniqlash huquqi buyurtmachi zimmasiga yuklatilgan.

6.3. Ushbu xulosa chiqarilishi munosabati bilan 13.11.2020-yildagi №466-2020/484-sonli yig‘ma ekspertiza xulosa bekor qilinadi.

Direktor o‘rinbosari:

Jo‘raev O‘. S.

Mutaxassis:

Rashidov Sh.Q.

